

TA'LIM JARAYONIDA PEDAGOG-TARBIYACHINING KASBIY MAHORATI VA KOMPETENTLIGI ZARURATI

Abdurashidov Adxamjon, Ph.D

Qo`qon DPI dotsenti

Pedagog-tarbiyachining kasbiy mahorati - pedagogik jarayonda tarkib topadi. Pedagogik jarayon esa kasbiy va shaxsiy tayyorgarlikni yo'lga qo'yib, bo'lajak mutaxassisni mehnatga, hayotga tayyorlash uchun davlat, jamiyat, millat va kelajak avlod oldida javob beradigan mutaxassislarni tayyorlashga xizmat qiladi.

Pedagog-tarbiyachining professiogrammasi xususiyatlari pedagog shaxsiga qo'yiladigan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-madaniy talablardan kelib chiqib rivojlanadi.

Pedagogik madaniyat kasbiy burchi, mas'uliyati, qadr-qimmatini, vijdoni, axloqiy e'tiqodini nazarda tutib, pedagog mutaxassisning talabchanligi, adolati, komilligi, rostgo'yiligi, to'g'riligini anglatadi. Pedagogik mahorat tizimida pedagogik nazokat (takt) – pedagog mutaxassisning pedagogik maqsadga muvofiq, foydali, qimmatli harakatlarining o'lchovi, me'yori va ta'sir vositasining chegarasi sifatida harakterlanadi. Ammo, o'z kasbining mohir ustasi bo'lish uchun faqatgina ularga tayanib, ish tutish kutilgan natijani bermasligi mumkin. Buning uchun muntazam ravishda pedagogik fikrlash, pedagogik o'ylash, pedagogik ish tutish lozim bo'ladi. Bu deganimiz, o'z faoliyatini pedagogik hodisalarni, vaziyatlarni tahlil qilish, ularning har bir bog'lanish joylarini anglashga intilish, kunlik natijalarni mustaqil ravishda tahlil qilishi va yangi ta'lim-tarbiyaga doir g'oyalarni avvalgilari bilan taqqoslay olishga odatlanishi ham lozim bo'ladi. Asosiy pedagogik-psixologik muammolarni topa olish ularni hal etishning eng qulay yo'llarini topish ustida o'ylash ham kerak.

Pedagog mutaxassisning kasbiy mahorati tizimida uning asosiy komponentlaridan tashqari kasbiy xususiyatlar ham mavjud. Pedagog mutaxassisning kasbiy xususiyatlariga: o'z kasbini, bolalarni sevishi, ziyoratligi, hozirjavobligi, vazminligi, pedagogik salohiyati, tasavvuri, iqtidori, tashkilotchiligi, chuqur va keng ilmiy saviyasi, kasbiy layoqatligi, ma'naviy ehtiyoji va qiziqishi, intellekti, yangilikni anglay va qo'llay olishi, kasbiy ma'lumotni muntazam oshirishga intilishi va boshqa fazilatlar kiradi.

Yuqorida qayd etilgan fikrlarga asoslanib, pedagogning kasbiy mahoratini muayyan tayyorgarlik jarayonlaridan iborat deb aytish mumkin.

Bu tayyorgarlikni shartli ravishda quyidagi yo'nalishlarga bo'lish mumkin:

1. Pedagogning shaxsiy fazilatlar bo'yicha tayyorgarligi;
2. Pedagogning ruhiy – pedagogik tayyorgarligi;
3. Pedagogning ijtimoiy - pedagogik va ilmiy – nazariy tayyorgarligi;
4. Pedagogning maxsus va ixtisosga oid uslubiy tayyorgarligi.

Ta'rifda qayd etilganidek pedagogik mahorat – pedagog – tarbiyachining shaxsiy va kasbiy sifatleri yig'indisi hisoblanib, u pedagogik – psixologik, metodik bilimlar majmuasidan iborat bo'ladi. Buning uchun pedagoglar, avvalo:

- a) ixtisoslik bo'yicha zamon, ilm – fan, texnika taraqqiyoti darajasida mukammal ma'lumotga ega bo'lishi, o'z faoliyatida maktabdagi o'quv-tarbiya jarayoni bilan bog'liqligini ta'minlash malakasiga ega bo'lishi;
- b) o'quv – tarbiya jarayonini aniq tashkil qila olish va buning uchun muayyan pedagogik – psixologik, metodik ma'lumotga ega bo'lishi;

- c) bolani, jamoani «ko'ra bilish», ularning qiziqishi, intilishlarini tushuna olish va bolalar faoliyatida uchraydigan qiyinchiliklarni tushunish va ularni o'z vaqtida anglay olish, zukkolik bilan har bir bolaning harakter xususiyati, qobiliyati, irodasini anglay bilish hamda ularga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishning shakl, usul, vositalaridan xabardor bo'lish;
- d) o'z shaxsiy sifatlari (madaniyati, tashkilotchilik qobiliyati, badiiy ehtiyoji, didi va h.k.) ni takomillashtirish malakasiga ega bo'lish kerak.

Pedagogik mahorat haqida gapirar ekanmiz pedagogning kompetensiyasi haqida ham ma'lumotlarga ega bo'lishimiz kerak.

Avvalo "Kompetentlik" (ingl. "competence" – "qobiliyat") – faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olish.

"Kompetentlik" tushunchasi ta'lim sohasiga psixologik ilmiy izlanishlar natijasida kirib kelgan. Psixologik nuqtai nazardan kompetentlik "noan'anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o'zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o'zaro munosabatlarda yangi yo'l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to'la ma'lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik"ni anglatadi.

Kompetensiya turlari - kasbiy kompetensiya quyidagilardan iborat:

- Pedagogika va psixologiyaga doir bilimlarga ega bo'lish;
- Ta'lim jarayonini rejalashtirish, baholash va qayta aloqani o'rnatish;
- Bolalarda motivatsiyani shakllantirish;
- AKTni bilishi;
- Ta'lim muhitiga yangilik kiritishi;
- O'z fanini mukammal bilishi;
- O'z ustida ishlashi va horijiy tillardan birini bilishi.

Kasbiy kompetensiyaning shakllanish bosqichlari:

- O'z-o'zini tahlil qilish va zarur narsalarni anglash;
- O'zini rivojlantirishni rejalashtirish maqsad, vazifa belgilash;
- O'zini namoyon etish va kamchiliklarini tuzatish.

Shaxsiy kompetensiya quyidagilardan iborat: muloqotchanlik; bag'rikenglik; yetakchilik; faollik va tashabbuskorlik; moslashuvchanlik; sog'lom turmush tarziga amal qilish; ma'suliyatlilik; ishchanlik; insonparvarlik.

Umummadaniy kompetensiyasi: ma'lumotli; madaniyatli; umuminsoniy qadriyatlarga egalik; milliy madaniyatga ega bo'lish; mamlakatning ijtimoiy hayotida ishtirok etish; boshqa millatlarning madaniyatini hurmat qilish.

Maxsus kompetensiyasi:

- Faoliyatiga doir maxsus metodlarni bilish;
- Ta'limni tabaqalashtirish;
- Bolalar ehtiyojini bilish;
- Turli yosh xususiyatlarini bilish;

Kompetensiya ko'rinishlari

1. Umumiy- turli xil holatlarda qo‘llash mumkin.
2. Maxsus- kasbiy faoliyatda bajarish lozim bo‘lgan harakatlar.
3. Didaktik kompetensiya.
 - O‘qitish muhitini yaratish.
 - Mavzu mazmunini yoritishni rejalashtirish
 - O‘quv jarayoni boshqarish
 - Bolalarning yutuqlari va rivojlanishlarini baholash
 - Bolalarga motivatsiya berish va yordam ko‘rsatish
 - Bolalar bilimni anglash va ularni rivojlantirish

Kasbiy kompetentlik – mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo‘llay olinishi.

Kasbiy kompetentlik quyidagi holatlarda yaqqol namoyon bo‘ladi:

- murakkab jarayonlarda;
- noaniq vazifalarni bajarishda;
- bir-biriga zid ma’lumotlardan foydalanishda;
- kutilmagan vaziyatda harakat rejasiga ega bo‘la olishda;
- kasbiy kompetensiyaga ega mutaxassis:
- o‘z bilimlarini izchil boyitib boradi;
- yangi axborotlarni o‘zlashtiradi;
- davr talablarini chuqur anglaydi;
- yangi bilimlarni izlab topadi;
- ularni qayta ishlaydi va o‘z amaliy faoliyatida samarali qo‘llaydi

Kasbiy kompetentlik negizida aks etuvchi sifatlar

Ijtimoiy kompetentlik – ijtimoiy munosabatlarda faollik ko‘rsatish ko‘nikma, malakalariga egalik, kasbiy faoliyatda subektlar bilan muloqotga kirisha olish.

Maxsus kompetentlik – kasbiy-pedagogik faoliyatni tashkil etishga tayyorlanish, kasbiy-pedagogik vazifalarni oqilona hal qilish, faoliyati natijalarini real baholash, BKMni izchil rivojlantirib borish bo‘lib, ushbu kompetentlik negizida psixologik, metodik, informatsion, kreativ, innovatsion va kommunikativ kompetentlik ko‘zga tashlanadi. Ular o‘zida quyidagi mazmunni ifodalaydi:

Psixologik kompetentlik – pedagogik jarayonda sog‘lom psixologik muhitni yarata olish, bolalar va ta’lim jarayonining boshqa ishtirokchilari bilan ijobiy muloqotni tashkil etish, turli salbiy psixologik ziddiyatlarni o‘z vaqtida anglay olish va bartaraf eta olish;

Metodik kompetentlik – pedagogik jarayonni metodik jihatdan oqilona tashkil etish, ta’lim yoki tarbiyaviy faoliyat shakllarini to‘g‘ri belgilash, metod va vositalarni maqsadga

Informatsion kompetentlik – axborot muhitida zarur, muhim, kerakli, foydali ma’lumotlarni izlash, yig‘ish, saralash, qayta ishlash va ulardan maqsadli, o‘rinli, samarali foydalanish;

Kreativ kompetentlik – pedagogik faoliyatga nisbatan tanqidiy va ijodiy yondoshish, o‘zining ijodkorlik malakalariga egaligini namoyish eta olish;

Innovatsion kompetentlik – pedagogik jarayonni takomillashtirish, ta'lim sifatini yaxshilash, tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga doir yangi g'oyalarni ilgari surish, ularni amaliyotga muvaffaqiyatli tatbiq etish;

Kommunikativ kompetentlik – ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilari, jumladan, bolalar bilan samimiy muloqotda bo'lish, ularni tinglay bilish, ularga ijobiy ta'sir ko'rsata olish.

Shaxsiy kompetentlik – izchil ravishda kasbiy o'sishga erishish, malaka darajasini oshirib borish, kasbiy faoliyatda o'z ichki imkoniyatlarini namoyon qilish.

Texnologik kompetentlik – kasbiy-pedagogik BKMni boyitadigan ilg'or texnologiyalarni o'zlashtirish, zamonaviy vosita, texnika va texnologiyalardan foydalana olish.

Ekstremal kompetentlik – favqulotda vaziyatlar (tabiiy ofatlar, texnologik jarayon ishdan chiqqan)da, pedagogik nizolar yuzaga kelganda oqilona qaror qabul qilish, to'g'ri harakatlanish malakasiga egalik.

Xulosa qilib aytganda, kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo'nalish bo'yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o'zlashtirilishini nazarda tutadi. Shuningdek, kompetensiya mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o'rganishni, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi ma'lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o'z faoliyatida qo'llay bilishni taqozo etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risidagi qonun – T.: 2019. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni, 2019. 9 oktyabr. №209(7439)-son.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi to'g'risida"gi PQ-4312-son Qarori / Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 10.05.2019-y., 07/19/4312/3106-son; 09.10.2020-y., 07/20/4857/1357-son.
3. EM Akilovna, THE COMPETENCE OF THE EDUCATOR IN THE APPLICATION OF TECHNOLOGIES FOR THE ORGANIZATION OF HEALTH CARE WORK FOR CHILDREN OF PRESCHOOL AGE, INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN ...
4. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=x8zmCUkAAAAJ&citation_for_view=x8zmCUkAAAAJ:zYLM7Y9cAGgC
5. Markova A.K. Psixologiya professionalizma. – M.: Znaniye, 1996.
6. Muslimov N.A., va boshqalar. Kasb ta'limi pedagoglarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi/ Monografiya – T.: "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2013.
7. Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., To'rayev A.B. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari – Toshkent, 2015.
8. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=ozrGWXoAAAAJ&citation_for_view=ozrGWXoAAAAJ:_FxGoFyZp5QC
9. G Nazirova. Мактабгача катта ёшдаги болаларда халқ оғзаки ижоди воситасида миллий ғурур хиссини шакллантириш–ижтимоий педагогик зарурият сифатида. Science and innovation 1 (B8), 2067-2077
10. GM Nazirova. CONTENT AND PEDAGOGICAL CONDITIONS OF DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL COMPETENCE OF PEDAGOGUES-EDUCATORS OF PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS/ International Academic Research Journal Impact Factor 7 (1), 6

11. NG Malikovna, MM Nurmatovna, Basic principles of technology for teaching methodological subjects in preschool education, ASIA PACIFIC JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT REVIEW ISSN: 2319-2836 Impact.
12. Sayidahmedov N. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. – T.: OPI, 2003.
13. NA Sultonova, I Sh, D Xolqoziyeva - TECHNOLOGIES OF URBRINGING CHILDREN IN MODERN FAMILIES, European Journal of Research and Reflection in Ed, 2020
14. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=Rh71JaMAAAAJ&citation_for_view=Rh71JaMAAAAJ:_FxGoFyzp5QC
15. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=Rh71JaMAAAAJ&citation_for_view=Rh71JaMAAAAJ:Se3iqnhoufwC
16. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=Rh71JaMAAAAJ&citation_for_view=Rh71JaMAAAAJ:IjCSPb-OGe4C

